

Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik berish

Ushbu bilan men 100015, STIR: 207318613, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Fidokor ko'chasi, 10-B uy manzili bo'yicha ro'yxatdan o'tgan "TBC Bank" ATBga (keyingi o'rinlarda "Bank" deb yuritiladi), shu jumladan uning affilangan shaxsi va Bank tomonidan vakolat berilgan boshqa tashkilotlarga O'zbekiston Respublikasi hududida hamda uning hududidan tashqarida avtomatlashtirilgan, shuningdek, avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmasdan shaxsiy ma'lumotlarimni qayta ishlashga, ya'ni to'plash, qayd etish, tizimlashtirish, yig'ish, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish, qo'shish), ko'chirma olish, foydalanish, uchinchi shaxslarga berish, shu bilan birga shaxsiy ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini yetarli darajada himoyasini ta'minlovchi va ta'minlamaydigan xorijiy davlatlar hududiga uzatish, tarqatish, ochiq Internet-resurslarda – Bank veb-saytlari sahifalarida joylashtirish, shaxsga doir ma'lumotlarni egasizlantirish va yo'q qilish, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, o'z roziligimni beraman:

- ism, familiya va otasining ismi;
- biometrik ma'lumotlar;
- tug'ilgan kun;
- yashash manzili;
- pasport ma'lumotlar;
- bog'lanish uchun telefon raqam;
- elektron pochta manzili;
- ta'lim va egallagan mutaxassisligi haqida ma'lumot;
- soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;
- shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR);
- sug'urta badallari;
- soliqlar bo'yicha qarzdorlik;
- jamg'arib boriladigan pensiya badallarining summasi;
- ko'chmas mulk va avtotransport vositalariga egalik huquqi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- mehnat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar;
- bank kartasi haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, bank kartalari yordamida amalga oshirilgan har qanday pul operatsiyalari
- mobil qurilmada saqlanuvchi va mobil ilova orqali alohida funksiyalar, xizmatlar va servislarni taqdim etish doirasida foydalaniladigan ma'lumotlar, shu jumladan cookie-fayllar orqali uzatiladigan axborot hamda kirib foydalanish huquqini taqdim etish bilan bog'liq ma'lumotlar.

Quyidagi maqsadlar uchun:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ichki normativ hujjatlarga rioya etilishini ta'minlash;
- men ishtirok etgan shartnomalarni tuzish va bajarish, shu jumladan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarning joriy va kelajakda bajarilishini nazorat qilish va bashorat qilish bo'yicha choralar ko'rish;
- mening moliyaviy va mulkiy holatimni, uchinchi shaxslar bilan munosabatlarimni tekshirish, men haqimda kredit hisobotini olish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq men haqimda har qanday ma'lumotni istalgan vaqtda istalgan manbadan istalgan miqdorda so'rash;
- Bank va/yoki uning affilangan shaxslari tomonidan statistik va/yoki marketing tadqiqotlar o'tkazish, aksiyalar, so'rovnomalar, so'rovlar va/yoki yangi mahsulotlar/xizmatlar to'g'risida ma'lumotlar berish;

- men bilan bog‘lanish, shu jumladan mahsulot/xizmatlardan foydalanish bo‘yicha xabarnomalar, so‘rovlar va ma‘lumotlarni yuborish, shuningdek, mendan olingan so‘rovlar va arizalarni qayta ishlash, shu jumladan bunday so‘rovlar va arizalarni kontragentlarga ijro uchun keyinchalik taqdim etish;
- Bankning mobil ilovasidan foydalangan holda qonunchilik yoki kelishuv talablariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarning oldini olish.

Ushbu rozilik noma'lum muddatga beriladi.

O‘zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-547-sonli Qonunining 22-moddasida nazarda tutilgan huquqlarimni, ya‘ni shaxsga doir ma‘lumotlarga ishlov berish borasida ma‘lumotlarni olish huquqim mavjudligi to‘g‘risida bilaman va ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1) shaxsga doir ma‘lumotlarni qayta ishlash faktini tasdiqlash; 2) shaxsga doir ma‘lumotlarni qayta ishlash asoslari va maqsadlari; 3) shaxsga doir ma‘lumotlarni qayta ishlashda qo‘llaniladigan usullar; 4) operatorning nomi va joylashgan joyi, shaxsga doir ma‘lumotlarga kirish huquqiga ega bo‘lgan yoki shaxsga doir ma‘lumotlar operator bilan tuzilgan shartnoma yoki qonun asosida oshkor etilishi mumkin bo‘lgan shaxslar (operator xodimlaridan tashqari) to‘g‘risidagi ma‘lumotlar; 5) tegishli shaxsga doir ma‘lumotlar subyektining qayta ishlanayotgan shaxsga doir ma‘lumotlarning tarkibi, ularni olish manbasi, agar qonun hujjatlarida bunday ma‘lumotlarni taqdim etishning boshqa tartibi nazarda tutilmagan bo‘lsa; 6) shaxsga doir ma‘lumotlarni qayta ishlash muddatlari, shu jumladan ularni saqlash muddatlari; 7) shaxsga doir ma‘lumotlar subyektining “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan huquqlarni amalga oshirish tartibi; 8) uzatilgan yoki ma‘lumotlar uzatilishi mo‘ljallangan transchegaraviy uzatishlar to‘g‘risidagi ma‘lumot.

Men Bankka istalgan shaklda ariza berish orqali Shaxsga doir ma‘lumotlarni qayta ishlashga berilgan rozilikni bekor qilishim mumkinligini bilaman.